



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 2-iyul

03-05/18-8086-son

Bojxona brokerlari uyushmasi raisi o‘rinbosari

E.F. Xalilovga

Bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot davomida Siz tomondan ko‘tarilgan, amaliyotda MXIK kodi va TIF TN kodi o‘rtasida nomuvofiqlik holatlari uchrayotganligi, buning natijasida bojxona axborot tizimidagi mantiqiy nazorat bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD) ni qabul qilmayotganligi hamda Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risidagi murojaatingiz tegishli tartibda o‘rganib chiqildi va quyidagilarni ma’lum qilamiz.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 249-son qarori bilan “Mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi” hamda 2025-yil 28-apreldagi 263-son qarori bilan “Mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini yuritish hamda undan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Unga ko‘ra, mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodi (MXIK) — har bir mahsulot va xizmatlarga biriktirish hamda ularni identifikatsiya qilish uchun mo‘ljallangan 17 xonali raqamdan iborat bo‘lgan noyob kod bo‘lib, milliy katalog rasmiy veb-saytda (tasnif.soliq.uz) yuritiladi.

MXIK quyidagi sxema bo‘yicha kodlashtiriladi:

000	00	000	000	000	000
guruh	sinf	pozitsiya	subpozitsiya	brend	atribut

“Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga muvofiq (ro‘yxat raqami 2773-10, 2025-yil 3-yanvar), tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvda (MXIK kodi mavjud bo‘lsa) BYuDning 44-grafasida **875 raqami** bilan tovarning MXIK kodi **ko‘rsatilishi lozim**.

Soliq qo‘mitasining axborot tizimlaridan olingan mahsulotlarning identifikatsiya kodlariga oid integratsiya ma’lumotlari asosida xavfni boshqarish tizimida mantiqiy nazorat mexanizmi joriy etilgan bo‘lib, unga ko‘ra BYuDda deklaratsiyalanayotgan

tovarning TIF TN kodi pozitsiyasi hamda MXIK kodining **dastlabki 2 — 5-raqamlari** o‘zaro muvofiqligi avtomatik tarzda tekshiriladi. Mazkur mantiqiy nazorat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida joriy etilgan bo‘lib, bojxona organlari ushbu qonunchilik hujjatlari talablarining ijro etuvchisi hisoblanadi.

Shu bilan birga, murojaatingizda qayd etilgan, Soliq qo‘mitasi tomonidan berilgan MXIK kodi tovarning amaldagi TIF TN kodiga mos kelmasligi holatlari yuzasidan quyidagilarni ma‘lum qilamiz.

MXIK va TIF TN kodlari mos kelmagan holatlar bo‘yicha Soliq qo‘mitasi tomonidan mos kelmaydigan MXIK kodlari ro‘yxati shakllantirilgan bo‘lib, ushbu ro‘yxatga kiritilgan MXIK kodlari bilan taqdim etilgan BYuDlar bo‘yicha ro‘yxatga olishda cheklovlar amal qilmaydi. Ya‘ni, mazkur holatlarda mantiqiy nazorat BYuDni ro‘yxatga olish jarayonini cheklamaydi.

Shuningdek, munozarali holatlar yuzaga kelgan taqdirda, ya‘ni mantiqiy nazorat natijasida BYuDni ro‘yxatga olish cheklanganda, TIF ishtirokchilari va bojxona rasmiylashtiruvchi mutaxassislari mantiqiy nazoratning xatolik matnida ko‘rsatilgan telefon raqamlariga murojaat qilishlari hamda masalani tezkor tartibda hal etishlari mumkin.

Bundan tashqari, Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi o‘rtasida MXIK hamda TIF TN kodlarining muvofiqligini ta‘minlash, integratsiya ma‘lumotlarini muntazam yangilab borish hamda aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo‘yicha hamkorlik davom ettirilmoqda.

Mazkur javob xatidan norozi bo‘lgan taqdiringizda, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 33-moddasiga asosan yuqori turuvchi organga murojaat qilish huquqiga ega ekanligingizni ma‘lum qilamiz.

Hurmat bilan,

Rais o‘rinbosari



N.Musamuxamedov